

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni tadqiq qiluvchi bo'limi hisoblanadi. Antroponimika onomastikaning ism, familiya, ota ismi, laqab va taxalluslarni o'rghanadi. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlaridan uzundilar olinib undagi antroponimlar haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: Onomastika, antroponimika, antroponom, ism, tarixiy shaxslar, taxallus, Abdulla Oripov.

Abstract: Onomastics is a branch of linguistics that studies common nouns. Anthroponymics is the study of first names, surnames, patronymics, nicknames and nicknames. In this article, excerpts from Abdulla Oripov's poems were taken and information about anthroponyms in them was given.

Key words: Onomastics, anthroponymy, anthroponym, name, historical persons, nickname, Abdulla Oripov.

Tilshunoslik doim o'zgarib, boyib boradi. Zamon rivojlanib borishi natijasida til ham boyib boradi. Tilshunoslikning ko'plab bo'limlari borki, ular orqali til turli tomonlardan tadqiq qilinadi. Tilshunoslikning shunday bo'limi borki, u orqali har bir atab qo'yilgan atoqli otlarni va ularning kelib chiqish sabablarini o'rghanamiz. Bu bo'lim onomastika bo'lib, u orqali ataoqli otlar o'rghaniladi. Otlar ikki turga bo'linadi turdosh otlar va atoqli otlar. Onomastika o'z ichida yana guruhlarga bo'linadi, bular antroponimika, toponimika, zoonimika va kosmonimika kabi guruhlarga bo'linadi. Bugungi kunda onomastikaning barcha guruhlari bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan, lekin asarlardagi onomastik birlik tadqiqi bo'yicha ishlar qilish endi rivojlanmoqda.

Antroponimlar Abdulla Oripov she'rlarida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Antroponom (yunoncha: antropos – antropos – opota – atoqlot) – kishiatoqlioti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronym vaboshqalar). Atoqli otlar tiplaridan biri.1

Nazmiy sajdaghohda Sizga, hoynahoy,
Imomlikka o'tgay faqat **Alisher**.

Hayotning mana shu burjidan turib,

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Men sizni o‘yladim, hazrati **Bobur**.

Alisher Navoiy turkiy tilning asoschisi bo‘lib, dunyo bo‘yicha eng ko‘p takrorlanmas so‘zlardan foydalangan ijodkordir. U nafaqat shoir balki, davlat arbobi ham bo‘lgan. Uning „Xamsa” asari butun dunyoga mashhur. Navoiydan oldin Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar „Xamsa” yozganlar. Navoiy davlat arbobi sifatida 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo‘ladi, 1478-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qiladi.²

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilda Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lmish Andijonda tavallud topgan. Bobur otasi vafot etgach o‘n ikki yoshida taxtga o‘tiradi. Bobur vatanini tashlab chiqishga va Hindistonda qo‘nim topib u yerda qolishga majbur bo‘ladi. Butun dunyoni jalg qilib, butun dunyoni lol qoldirga va eng gavjum turistik markaz bo‘lmish „Tojmahal” aynan Boburning avlodni bo‘lmish Shoh Jahon tomonidan qurdirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti haqida „Boburnoma” asari yetib kelgan. Bu asar memuar asar bo‘lib, Bobur hayoti davomida borgan manzillari va ularning geografik joylashuvi, tabiat, hayvonot va nabobot olami haqida yozilgan. Boburning „Mubayyin al-zakot”, „Muxtasar”, „Harb ishi”, „Musiqqa ilmi” hamda ikkita devon ham tartib qilgan bular „Kobul devoni” va „Hind devoni”dir.

Har kalimang ma’rifatning
Ufqida oydek to‘lib,
El aro topding sharaf sen,
Ustoz **Oybek** bo‘lib.

Oybek 1905-yil Toshkentda tavallud topgan. Oybekka Hamid Olimjon shunday ta’rif beradi: „Oybek prozada shoir-u poeziyada prozaikdir”. Oybek she’r, doston, hikoya, qissa, roman, dramalar yozgan, shuningdek tarjima bilan ham shug‘illangan. Oybekning „Na’matak”, „O‘zbekiston” nomli she’rlar, „Dilbar - davr qizi”, „O‘ch”, „Navoiy” dostonlari, „Fanorchi ota”, „Singan umid” hikoyalari, „Nur qidirib”, „Bolalik”, „Alisherning bolaligi” qissalari, „Qutlug‘ qon”, „Navoiy” va „Quyosh qoraymas” romanlari muallifidir.

Shoshmagin, ey, karvon, to‘xtagin biroz
Ona Sharq sehri bor jihozlaringda.
Senda yig‘lab borar **Sa’diy** navjuvon
Rudakiy mehri bor bayozlaringda.

Sa’diy Sheraziyning asl ismi Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin bo‘lgan. Otasi Shayx bo‘lgan. Sa’diy Sheraziy yoshligida madrasalarda tahsil olib diniy, filologik hamda tabiiy va aniq fanlarni o‘qib o‘rganadi. Sa’diy Sheraziy umrining ko‘p qismini sayohatda o‘tkazadi. Sa’diy Sheraziyning „Guliston” va „Bo‘ston” asarlari mashhur. Sheraziy bitgan asarlari xalq hayotining qiyin kunlarini aks ettirgani bilan ajralib turadi. Sheraziy ham o‘z hayoti davomida kechirgan qiyinchiliklari natijasida asarlar yozadi va bu asarlari bugungi kunga qadar yetib keladi.

Rudakiy fors she’riyati asoschilaridan biri hisoblanadi. Rudakiy she’riyat bilan birgalikda musiqqa ilmini ham o‘rgangan, xususan ud, rud, chang kabi cholg‘u asboblarini chalishni

o‘rgangan. Ayrim manbaalarda Rudakiy she’riyati yuz ming baytdan iboratligi qayd etiladi. Rudakiy „Oftob davroni”, „Sinbodnoma”, „Dar vasfi Buxoro” kabi asarlar muallifi.

Bugungi kunda yoshlarni kitob mutolaasiga jalb qilish uchun qator chora tadbirlar amalgalashirilmoqda. Har bir inson badiiy asar mutolaasi bilan birgalikda tarixni, bugunni va kelajakni anglaydi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. B. Yo‘ldoshev O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand – 2011
2. M. Xudoyorova Onomastika Toshkent “Muxr-Press” 2020
3. T. Nafasov., V. Nafasova O‘zbek tili toponimlarining o‘quv lug‘ati Toshkent “Yangiavlod” 2007